O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI HOKIMINING

Q A R O R I

Namangan sh. Istiqlol ko`chasi 57.

2023 - yil 20 - dekabr 483-6-0-Q/23 Namangan viloyati hokimligi

Namangan viloyatida qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun to‘lov tariflarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2023-yil 21-iyuldagi 01-04/5-3023-sonli, Namangan viloyati ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasining 2023-yil 25-iyuldagi 2254/03-sonli xatlari va Namangan viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 25-iyuldagi 01-14/20-05-38/529/1-sonli xulosasini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Chiqindilar to‘g‘risida”gi Qonuni 11-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentabrdagi “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4845-sonli qarori 4-bandi, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi 95-son qarori bilan tasdiqlangan “Qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish qoidalari”ning 7-bandi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalarga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 25-iyuldagi 01-14/20-05-38/529/1-sonli xulosasi hamda Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining 2023-yil 15-dekabrdagi VI-41-116-6-0-K/23-son qarori ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. Namangan viloyatidagi barcha tuman(shahar)larda qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun to‘lov tariflari 2024-yil 1-yanvardan quyidagicha etib tasdiqlansin:

aholi uchun – 5000 so‘m (bir kishiga);

yuridik shaxslar (shu jumladan, budjet tashkilotlari) va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun (QQSsiz) – 50000 so‘m (1 m^3 uchun).

3. Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi (A.Jalilov) qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash hamda olib chiqib ketish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun yangi to‘lov tariflari belgilanganligini jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazish choralarini ko‘rsin.

4. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi 95-son qarori bilan tasdiqlangan “Qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish qoidalari”ning 8-bandiga asosan, quyidagi chiqindilarni olib chiqib ketish xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar tomonidan kelishilgan narxlarda alohida to‘lov evaziga amalga oshirilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin:

suyuq maishiy chiqindilar;

yirik gabaritli maishiy chiqindilar;

chorvachilik chiqindilari;

qurilish chiqindilari va tuproq;

daraxt va butalarni kesish hamda agrotexnik ishlov berishdan hosil bo‘ladigan chiqindilar (daraxt va buta shox-shabbalari, kesish ishlari qoldiqlari, barglar va boshqalar) va smyot.

5. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan Namangan viloyati hokimining 2019-yil 24-maydagi “Viloyatda qattiq maishiy chiqindilarni tashib chiqarish xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha yangi tariflarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 387-son qarori o‘z kuchini yo‘qotsin.

6. Ushbu qaror “Namangan haqiqati” va “Namanganskaya pravda” gazetalarida e’lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

8. Ushbu qarordan norozi shaxslar yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

9. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari G.Djamalov hamda Namangan viloyati ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi boshlig‘i A.Jalilov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi **Sh.Abdurazakov**